

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

BOSHLANG'ICH TA'LIM USLUBIYATI KAFEDRASI

BUTUNBOEVA UMIDA SUNNATOVNA

5141600 - BOSHLANG'ICH TA'LIM VA SPORT-TARBIYAVIY ISH KUNDUZGI TA'LIM YO'NALISHI
BO'YICHA BAKALAVR DARAJASINI OLISH UCHUN *«BOSHLANG'ICH SINF DARSLARIDA
DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH»* MAVZUSIDA YOZGAN

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: p.f.n., dost. **R.N. ERGASHEV**

GULISTON – 2014

M u n d a r i j a

K I R I S H	3
I bob. BOSHLANG'ICH SINFLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSLARI.....	6
1.1. Boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinlarning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyati.....	6
1.2. Boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinlardan foydalanish texnologiyasi.....	12
II bob. BOSHLANG'ICH SINFLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH TAJRIBA-SINOV ISHLARI.....	24
2.1. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi.....	24
2.2. Boshlang'ich sinf matematika darslarida foydalaniladigan didaktik o'yinlar.....	29
XULOSA VA USLUBIY TAVSIYALAR	41
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	44

K I R I S H

Mavzuning dolzarbligi. Davlatimiz tamonidan ta'lim sohasiga, o'quvchilarning intellektual salohiyati, mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlari, tafakkurini rivojlantirish, egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishlari, amaliy ko'nikma va malakalarini hosil etishga katta e'tibor berilmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun o'quv-tarbiya jarayonining barcha imkoniyatlari, pedagogik texnologiya va axborot texnologiyalari, didaktik vosita va usullaridan samarali foydalanish zarurati davlat ta'lim siyosatida muhim o'rin tutadi. (1,2,3)

Bola hayotida bog'chadan so'ng maktabning dastlabki davrlari muhim o'rin tutadi. Shu bois boshlang'ich ta'lim davri o'quv-tarbiya jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi.

Bu davrda bolaning zehni o'stirishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda, avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, ijobiy o'quv motivlarini hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki, bu muddat bolaning o'yin faoliyatidan aqliy faoliyatiga, ya'ni o'quv faoliyatiga o'tganligi bilan xarakterlanadi. (5, 31)

Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'yin orqali o'z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o'zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta'lim jarayonida qo'llanadigan didaktik o'yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayoning samaradorligini oshiradi, ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini, o'qish motivlarini rivojlantiradi. O'quv motivlari ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o'rin tutadi. Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali bo'lishiga, o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini muvoffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya'ni didaktik o'yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o'quvchilarning qiziqishlari ortadi. (5,7,10)

Didaktik o'yinlar nafaqat boshlang'ich sinflarda, balki ta'limning keyingi bosqichlarida ham o'quvchilarning bilimga bo'lgan ishtiyoqlari rivojiga katta turtki bo'lishi mumkin. Ayniqsa, qiyin o'zlashtiruvchi o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini oshirishga bunday o'yinlar samarali ta'sir ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinflar uchun yaratilayotgan o'quv qo'llanmalarida shu sohaga oid materiallar tanqisligi ko'zga tashlanib turadi. (8,14,16,18)

Keyingi yillarda ta'limga texnologik yondashuv, uni samaradorligini oshirishda interfaol usullarni qo'llash muammolari ustida talaygina tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda (Abdullaev Q.A., Abdukarimov H., Bikboeva N.O'., Zaripov K., Inomova M., Mavlonova R., Tursunov I., Nishonaliev O'., Yo'ldashev J.G'., Usmonov S.A., Sayidahmedov N., Tolipov O'., Tolipova M., Farberman L.B. va boshqalar). (6 -35)

Jumladan, boshlang'ich sinflarda pedagogik texnologiyalarni qo'llash (Abdullaeva X., Abduraimova M., Abdieva D., Bikboeva N., Inomova M., Mamatova G., Mirxayitova S., Nishonova Z. Raximbekova S., Raxmatullaeva X., Sariev Sh., Turg'unov S., Xusanboeva Q., Xasanov R. va boqalar), unda didaktik o'yinlarning tutgan o'rni (Abduraxmanova A., Jumaboev M., O'rinboeva L., G'afforova F., Nurillaeva Sh., Haydarova O. va h.k.) bo'yicha ham pedagog tadqiqotchilarimiz qiziqarli takliflarni berishmoqda. (5,7, 24,30,31,36)

Amaliyotda esa bu borada yutuqlar bo'lishi bilan bir qatorda e'tibordan chetda qolayotgan ishlarimiz ham talaygina.

Ushbu muammoning dolzarbligin, nazariy va amaliy holatidan kelib chiqqan xolda BMI mavzusini tanladik.

Tadqiqot ishimizning **maqsadi** – boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinlarning tutgan o'rni, mazmun va turlari, ularning ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot ishimizning **ob'ekti** – boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinlardan foydalanish jarayoni, **predmeti** – boshlang'ich sinflarda foydalaniladigan didaktik o'yinlarning tur va shakllari, ularning mazmun va mohiyati, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishdagi rolini aniqlashdan iborat.

Muammoning dolzarbligi, maqsadi, ob'ekt va predmetidan kelib chiqqan holda tadqiqotning quyidagi **vazifalarini** belgilab oldik:

1. Boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinlarning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyati, ularning tur va shakllari, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishdagi ro'lini aniqlash.

2. Boshlang'ich ta'limga texnologik yondoshuv, unda didaktik o'yinlardan foydalanish – ta'lim samaradorligining garovi ekanligini asoslash.

3. Boshlang'ich sinf darslarida o'tkaziladigan didaktik o'yinlar mazmuni, shakl va turlari, ulardan foydalanish metodikasini yoritish.

4. Boshlang'ich sinf ona tili va matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalangan holda tajriba-sinov ishlari o'tkazish.

5. To'plangan nazariy ma'lumotlar va tajriba natijalari asosida metodik tavsiyalar berish.

BMI ning **nazariy ahamiyati** shundaki, unda boshlang'ich ta'limga texnologik yondashuv asosida ta'lim samaradorligini oshirishning didaktik vosita va usullari ochib berilgan. Didaktik o'yinlarning mazmuni, tur va shakllari, ulardan foydalanish metodikasi sinov-tajriba natijalari asosida ishlab chiqilgan.

BMI ning **amaliy ahamiyati** shundan iboratki, unda keltirilgan amaliy-metodik materiallardan boshlang'ich sinf o'qituvchilari va talabalar o'z pedagogik faoliyatlarida foydalanishlari mumkin. Ular boshlang'ich ta'limga texnologik yondashuv asosida didaktik o'yinlardan foydalangan holda boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishlari mumkin.

Bitiruv malkaviy ishi o'z ichiga kirish, ikkita bob, uning to'rt tarkibiy qismlari, xulosa va uslubiy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini oladi.

I bob. BOSHLANG'ICH SINFLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

1.1. Boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinlarning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyati

Bolalarga o'yinni o'rgatishdan muayyan ta'limiy maqsad nazarda tutiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati ham ana shundadir. O'yin o'tkazilish shakllari va usullari ta'limning boshqa turlaridan farq qiladi.

Didaktik o'yin usullari cheksiz, takrorlash va o'zgartirish, unga turli yangiliklar kiritish imkoni bor. Masalan, biz "Jimjitlik" o'yinining 5-7 xilini butun sinf bilan hamda ayrim bolalar bilan 10 martadan ko'proq takrorlab o'tkazdik, "Nima o'zgardi?" turidagi o'yin 5 xil turli ko'rsatmali material bilan o'tkazildi. Natijada o'yin malakalarining bir xilda va mustahkam bo'lishiga hamda o'yinning har bir qoidasini tinglay bilish va unga rioya qilishiga erishish imkonini beradi.

Didaktik o'yinlar o'zining shakli jihatidan, asosan, bog'chada o'ynaladigan ijodiy o'yinlardan ham, o'qituvchi o'zi hikoya qilib berish yo'li bilan tushintiradigan va o'quvchilarni birma-bir so'rab chiqish natijasida mustahkamlanadigan o'yinlardan ham bir tomonlama farq qiladi. Didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g'olib chiqish maqsadida jon-dili bilan mashq qiladilar, berilgan har bir topshiriqni albatta bajarishga odatlanib qoladilar, natijada ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqish orta boradi. Didaktik o'yinlar har bir darsning maqsadini, har bir mashqning maqsadi va vazifalarini yaxshiroq tushinib olishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligi, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning o'ylab olishiga va aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yin qoidalarini o'zlari bajarishlariga undaydi. Didaktik o'yinlarning bu tarzda tuzilish hususiyatlari o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o'yin vaqtida zo'r qiziqish bilan harakat qiladilar.

Didaktik o'yinlar bolaning his-tuyg'usiga ta'sir etib, unga o'qishga ijodiy munosabat, qiziqish hislatini tarkib topdiradi. Bolalar o'yinda zo'r manmuniyat bilan ishtirok etadilar. O'yin boshlanishini sabrsizlik bilan kutadilar, ularning oldiga beixtiyor ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi.

Har bir didaktik o'yinda ko'pchilik bolalar yoki butun bir sinf o'quvchilari ishtirok etadi. Masalan, "Doiraviy misollar" o'yinida hamma bolalar masala yechadi, "Zanjircha" da 10 nafar, "Do'koncha" da 8-12 nafar bola, "Narvoncha" da esa hamma o'quvchilar masala yechadilar.

Bundan tashqari, o'yin jarayonida hatto bolalardan ba'zi birlari ishtirok etmasa ham, ular o'yinda imo-ishoralar bilan ham qatnashadilar. Masalan, ko'zlarini yumib, kim necha marta taqillatganini tinglaydilar.

"Eng yaxshi hisobchi", "Ko'proq va tezroq" kabi o'yinlarda o'z o'rtoqlarining misolni qanchalik tug'ri-notug'ri yechayotganlarini kuzatib boradilar. Bu esa o'qituvchiga o'quvchilar faoliyatiga individual munosabatda bo'lish imkonini beradi.

Didaktik o'yinlar o'tkazilish jarayonida bolalarning o'zlarini mustaqil boshqara olishda o'rganishlarini ta'kidlab o'tish lozim.

Didaktik o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati nimalardan iborat?

Tajriba shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar hamjihatlik va intizomlikni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yin g'alaba qozonish bilan bog'liq bo'lib, o'yin shartlari va qoidalariga qat'iy va izchil rioya qilishni talab etadi. "Kim aniqroq va tezroq", "Bo'sh kelma", "Eng yaxshi hisobchi", "Ko'rganni eslab qolish" kabi o'yinlarni o'tkazish paytida o'quvchilar sinf xonasida jimjitlik bo'lishiga o'quvchilarning o'zlarining tuta bilishlariga, partadan tovush chiqarmay turib, oyoq uchida doskaga chiqa olishlariga, joylariga osayishtalik bilan qaytib kelib o'tirishlariga, tovushlarni diqqat bilan tinglashlariga, raqamlarga zehn bilan tinglashlariga, raqamlarga zehn bilan qarashlariga erishadilar.

Darsda o'yinqaroqlik qilib o'tiradigan va o'qituvchini bitta dars davomida 10-15 martagacha tanbeh berishga majbur etadigan bolalar ham uchrab turadi. Biroq o'yin o'tkazilayotgan vaqtda bunday bolalarning hulq-atvori tamoman

o'zgarib ketadi. Ular darhol o'zlarini tutib oladilar, o'qituvchining o'yin qoidalarini ko'rsatib berishini kutib o'tirmaydilar ham, qoidalarni o'zlari mustaqil bajaradilar.

Didaktik o'yinlar jarayonida bolalarda uyushqoqlik, vaqtni iloji boricha tejay bilish hislatlari tarbiyalanadi. Didaktik o'yinlar bolalarda do'stlik, birodarlik, mehnatsevarlik hissini tarbiyalash va taraqqiy etishiga yordam beradi. "Kim turgan saf yaxshiroq", "Zanjircha", "Narvoncha", "Bilgan kishi sanashni davom ettiraversin" singari o'yinlar o'tkazilayotganda bolalar o'z o'rtoqlari, o'zi turgan saf va o'z sinflarining sharafi uchun kurashadilar. Bir safga tizilganlar ikkinchi safda turgan o'quvchilar bilan musobaqalashayotganda topshiriqni saflardan birining o'quvchisi yoki bir necha o'quvchilari, yoxud butun bir saf bajaradi.

Odatda, bolalar o'z sheriklariga dalda berib turadilar, agar o'rtoqlari topshiriqni to'g'ri bajarsa, undan behad xursand bo'ladilar va u bilan fahrlanadilar. Shuni ham aytish kerakki, o'yin o'tkazilayotgan paytda bolalarda hasad, qizishib ketish singari salbiy hislatlar uchramaydi. Didaktik o'yinlar ijodiy shaxsni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yinning takrorlanishi topshiriqni bajarishga yangicha munosabatda bo'lishini talab kiladi. Uni hal qilish zarurati esa ijodiy izlanishlarni keltirib chiqaradi.

Didaktik o'yinlarda tirishqoqlik, matonatlik, boshlangan ishini oxirigacha etkaza bilish singari eng kerakli irodaviy sifatlar tarbiyalanadi. Masalan, "Doiraviy misollar" o'yinida oltita misolning hammasini yechish kerak, aks holda oxirgi sonining birinchisiga to'g'ri kelish-kelmasligini bilib bo'lmaydi. Ana shuning o'zi bolalarni faollashtirib yuboradi va ular misolni yechmay qo'ymaydilar. "Do'koncha" turidagi o'yinda o'yinchoqlar "sotib olish" ning o'zi bilan ish bitmaydi, balki bir necha o'yinchoqlar narxini hisoblab, (ko'shib) chiqishga necha pul "qaytarib" berish kerakligi haqida o'ylab ko'rishga ham to'g'ri keladi.

Bolalar "Qiziqarli kvadratlar" o'yinida murakkab matematik amallarni bajaradilar. Bunda o'quvchilarga bir yo'la bir necha amallarni bajarishga, chiqqan natijalarni taqqoslashga, erishilishi mumkin bo'lgan natijalar to'g'risida o'ylab ko'rishga va noto'g'ri hisobdan voz kechishga to'g'ri keladi.

Bularning hammasi tez, zo'r qiziqish va aqliy faoliyat bilan o'tadi. Katta, chiroyli to'pni ko'rgan o'quvchilarda tortinchoqlik yo'qola borib, dadillik bilan sonlarni o'ylab topishga kirishadilar. O'yin jarayonida bolalarda tevarak-atrof haqida to'g'ri tushuncha paydo bo'ladi, bu esa bolalarga topshiriq mazmunini turli xil turishlarida yordam beradi. "Do'koncha", "Nimani taqillatdim?", "Teatr", "Bolalar bog'chasida", "Mehmondorchilikda" kabi o'yinlarda bolalar tevarak atrofdagi hayotni, narsalarning sifatini, og'irlik o'lchovi, narx-navolar va boshqalarni bilib oladilar, ularda fazoviy tasavvurlar mustahkamlanadi.

Didaktik o'yinlar, o'qituvchini bolalarga yaqinlashtiradi, bolalar nazarida tarbiyachigina emas, balki chinakkam do'stga ham aylanadi. Bu esa ayniqsa dastlabki kunlarda yuz beradigan yodsirash hollariga barham beradi. Shunday qilib, o'yinlar bolalarda o'qituvchi va o'qishga nisbatan ijobiy munosabat paydo qiladi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'tkaziladigan bolalarning bo'sh vaqtini samarali o'tkazish vositasidir. "Bo'g'inlar", "Sanayver", "Qiziqarli kvadratlar" kabi o'yinlardan esa qo'shimcha mashg'ulotlarda unumli foydalaniladi. Bolalar jon dillari bilan darsdan keyin qolishga rozi bo'ladilar.

O'quvchi didaktik sifatli o'yinlar sifatida har qadamda didaktik mashqlardan foydalanadi. Ular orasidagi farq shundaki, didaktik o'yinda g'oliblar albatta bo'lishi kerak, didaktik mashqlarni bajarishda esa bu talab shart emas.

Agar o'qituvchi bu rasmdan didaktik o'yin sifatida foydalanmoqchi bo'lsa, unda u bolalarga: Har bir qatordan ikkitadan eng yaxshi hisoblovchini tanlang. Ulardan biri ona echki qo'lidagi misollarni yechadi va javobni yozadi, ikkinchisi esa echki bolasining qo'lidagi misollarni yechadi. «Ulardan qaysi biri tez yechsa, o'sha qator g'olib bo'ladi», deydi.

Avval, birinchi qatordagi partadan ikki o'quvchi chiqib, misollarni tez yechadilar va natijalariga qarab chap va o'ng qatorga o'tiradi. Keyin bu o'yin takrorlanadi va boshqa qatordagi partada o'tirgan o'quvchilar bajaradi. Bu ishni didaktik mashq sifatida bajarish mumkin. Bu vaqtda faqat chap tomonda yoki o'ng tomonda yozilgan misollar ishlanadi. O'qituvchi bu misolni (30-15+13-8-40-2)

o'quvchilar ketma-ket bajarishga ulguradigan tarzda sekinlik bilan o'qiydi, keyin natijasini aniqlaydi va doskaga yozib qo'yiladi.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlar mazmuni va ahamiyatini chuqur va aniqroq tasavvur qilish maqsadida biz ta'lim, o'yin, didaktik topshiriq, o'yin topshiriqlari singari tushunchalarning ta'rifiga va ularning ma'nosini ochib berishga to'xtalib o'tmoqchimiz.

Ta'lim – o'quvchilarga ko'nikma va malakalar, berishning, bu bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilar o'qib olishi, egallab olishi va ularni mustahkamlab olishining rejali jarayonidir.

Ta'lim jarayoni – bolalar xotirasining boyishi, ular nutqi va tafakkurining o'sishi, turli xil metod va usullar yordamida sodir bo'ladigan vaziyatdir.

O'yin - bolalarning ongi qalbiga singib ketgan faoliyatdir ularning bu faoliyati o'yin turlariga qarab obektiv voqelikni hayotni muayyan darajada o'zida aks ettiradi.

O'yin sinfda o'tilgan o'quv faoliyatining ma'lum darajada davomi va mustahkamlanishidir.

Tajribada shu narsa isbotlanganki o'yin kichik maktab yoshidagi o'quvchi bolalarning zarur hayotiy ehtiyojidir.

Didaktik o'yin – ta'lim beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiy maqsadlarga erishuvga, ya'ni o'tilgan o'quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi. Masalan, "Teatr" o'yiniga qo'yiladigan didaktik topshiriq bolalarni oldingi darslarda tanishgan 5 soni haqida tushunchalarni mustahkamlashdan iborat. "Doiraviy misollar" o'yinida esa ikkinchi o'nlik ichida hisoblash malakalarni mustahkamlashdan iborat bo'lgan didaktik topshiriq qo'yiladi.

Didaktik topshiriq darsda qo'yiladigan umumiy maqsadning bir qismini tashkil qiladi.

Har bir didaktik o'yinning ham har qanday o'yindagi singari qoidalari bo'ladi. O'sha qoidalarga amal qilinmasa o'yinning o'yin sifatidagi ahamiyati,

binobarin, o'yinning talim – tarbiyaviy va psixologik ahamiyati yo'qoladi. O'yin qoidalari o'yin topshirig'iga kiritiladi.

O'yin topshiriq – o'qituvchining bolalarga o'yinning qanday o'ynalishini, kim g'oliblikni aniqlashdan iborat.

“Jimjitlik” o'yinida bolalarga beriladigan topshiriq o'qituvchi ko'rsatgan buyumlar miqdorini hayolan sanab, yechish va son natijasini topishdir. O'yin qoidasi ovoz chiqarmasdan harakat etishni talab qiladi.

Quyidagi didaktik materiallardan foydalaniladi: sur'atlar, jadvallar, stol ustida ko'rsatiladigan teatr, sahna, abak (sanoq asbobi), o'yinchoqlar, chotlar, xaltachaga solingan yong'oqlar, cho'plar, qo'lda yasalgan qog'oz qayiqcha va qalpoqcha, geometrik shakllar chizilgan jadvallar, sxemalar, sanoq materiallari va geometrik shakllar solingan qutichalar.

Qo'llaniladigan o'yinlar nomi: ”Sanayver”, ”Ko'rganni eslab qol”, ”Biz kamayib qoldik”, ”Kim ketdi (takrorlash)”, ”Nima o'zgardi?”, ”Teatr”, ”Nechta ekanligini top”, ”Jadvalni qidirib top”, ”Qo'shnilaringni top”, ”Hisoblashni kim bilsa davom ettiraversin”, ”Tuk-tuk”, ”Uychaga kim tez kiradi”, ”Kim chaqqon?”.

1.2. Boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinlardan foydalanish texnologiyasi

Yunoncha «texnos» – hunar, san'at va «logos» – fan so'zlaridan tashkil topib, «hunar fani» ma'nosini anglatadi. (12,15) Pedagogik texnologiya – o'qitishning yangicha usuli bo'lib, ta'lim va chuqur bilim berishga, ularni mustahkamlashga, o'quvchilar bilimdonligini oshirishga qaratilgan jarayondir. (12,15,21,25)

Pedagogik texnologiyaga keng ta'rif berish uchun ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Olimlar Sh.Nuriddinov, A.Abdujabborov fikricha, pedagogik texnologiya:

1. O'quv jarayonida yangi metodlarni qo'llash.
2. O'quv materialini yangicha talqin etish.
3. O'qitishda yangi informastion texnologiyani kiritish jarayonidir. (26,29)

Bugungi kunda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotda keng qo'llash zaruriyatini quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

1. Jahondagi fan, texnika va madaniyatning tez rivojlanib borishi va uning ta'lim mazmuni kengaytirib, chuqurlashtirib yuborayotganligi.

2. Mamlakatimizda ta'lim sohasida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Davlat ta'lim standartlarining yaratilishi.

3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha ko'p yildan buyon xorijiy mamlakatlarda to'plangan tajribalar va ulardan mamlakatimiz ta'lim muassasalarida foydalanish. (6, 12,15,25)

Boshlang'ich sinf darslarida pedagogik texnologiyadan foydalanganda quyidagi **qoidalarga** amal qilish lozim:

a) zamonaviylik – ta'lim-tarbiya amaliyotiga asoslangan tajriba, sinovdan o'tgan didaktika sohasidagi yangiliklarni joriy etish;

b) ta'lim-tarbiya mazmunini uzluksiz yangilab borish, o'quv dasturlariga befarq bo'lmasdan sinchkovlik bilan o'rganish:

v) umumiy va milliy qadriyatlash sohasidagi yangi ijodlarini o'rganib borish;

g) o'quv jarayonida o'quvchi bilim o'qituvchi faoliyatini optimallashtirish, faollashtirish;

d) ilmiylik-yangi usul, vosita muammosi holatlaridan foydalanib, o'quvchilarni mustaqil fikrlash va o'zini anglashga o'rgatish;

e) dars maqsadining aniqligi mazmunining zamonaviyligi, milliy ma'naviy qadriyatlar bilan boyitilishi:

f) yangi pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish uchun har bir o'qituvchi nazariy chuqur bilimga ega bo'lishi zarur.

Maktabdagi o'quv jarayonining sifati ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida o'qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Binobarin, ular bilimlarning ongli va chuqur o'zlashtirishiga, o'quvchilarda mustaqillik va ijodiy faollikni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Usul va metod tushunchalari o'zaro bog'liqdir, chunki ularning har biri metod sifatida ham, usul sifatida ham namoyon bo'ladi.[15]

Metod – yunoncha atama bo'lib, aynan nimagadir yo'l degan ma'noni anglatadi, ya'ni maqsadga erishish yo'lini bildiradi. O'qitish metodi tarkibida usullar alohida ajralib turadi. Usul – metodning unsuri bo'lib, uning tarkibiy qismi, metodni amalga oshirishda bir martagina qo'llanadi va alohida qadam hisoblanadi.[13,35]

Pedagogik amaliyotda o'qitish usullari va metodlarining juda katta boyligi to'plangan. Ularni tanlashda turli sharoitlar, o'qitilayotgan fanning xarakteri, bolalarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hokozolar hisobga olinadi.

Metod va usullarni tanlash o'qituvchi darsda hal qilinishi mo'ljallangan masalaga bog'liq bo'ladi. Chunonchi, yangi materialni bayon etishda bir xil metodlar qo'llansa, uni mustahkamlashda va mazmunini umumlashtirishda yana boshqa xil metodlar qo'llaniladi. Garchi har bir o'qitishning ishida anchagina usul va metodlar mavjud bo'lsa-da, ularni qo'llashdan ko'zlanadigan maqsad tarbiyalanuvchining ta'limiy ishlarini faollashtirishdir. Bu tadbir juda muhim bo'lib, birinchidan, o'quvchilarni ularning e'tiqodiga, e'tiqodni esa amaliy faoliyatga, xatti-harakatga aylantiradi, ikkinchidan, o'qitish jarayonining ishini osonlashtiradi. (10,11,16)

Zotan, o'qish-o'rganish diqqat e'tiborni talab qiladigan, murakkab faoliyatdir va unda o'tkir aql, mustahkam iroda, tiniq tasavvur, kuchli xotira zarur. O'qituvchining vazifasi samarali usul va metodlardan foydalanib o'quvchilarda ana shu sifatlarni tarkib toptirish va ularni qiyinchiliklarni yengishga o'rgatishdir.[14,17,21]

O'qitish usullariga muayyan **talablar** qo'yiladi:

- O'qitish metodining ilmiy asosi yaqqol va aniq bo'lishi zarur. Shundagina o'qituvchi mazkur metod orqali qanday masalalar qo'yilishi va hal qilinishi mumkinligini, qanday masalalarni hal qilib bo'lmasligini ko'ra oladi.
- O'qitishning tizimligi uning samaradorligini belgilaydi.
- O'qitish metodining tushunarligi o'qitishning yo'li o'quvchi uchun qabul qilinishi va qo'llanishi, o'quv materialini

o'rganishning usuli esa bilimlarni o'zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi zarur.

- O'qitishning onglilik va faollik zaruriyati nihoyatda jiddiy talabdir.
- Bilimlarni puxtaligi va asosligi.
- O'qitish metodikasida nazariy va amaliy hodisalarning muvofiqligi.(13,32,33)

Har qanday metoddan biror maqsadga erishish ko'zda tutiladi va shuning uchun u qandaydir maqsad qo'yishni, unga erishish bo'yicha faoliyat usulini, ana shu faoliyatni amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni bilishni taqozo etadi. Har qanday faoliyat uning ob'ektini talab qiladi. Nihoyat, metod maqsadga olib borishi kerak, aks holda, u qo'yilgan maqsad yaroqsizligini, yo bo'lmasa, bu holatda uni umuman noto'g'ri qo'llanganligini e'tirof etish lozim.(8,18)

O'qitish usullarini quyidagilarga bo'lish mumkin:

1. Tafakkur, xotira, diqqat va hayolning alohida operastiyalarni tarkib toptiradigan va faollashtiradigan usullar;
2. O'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish bilan bog'liq kechinmalari va hissiyotlarini faollashtiradigan usullar;
3. Nazorat va o'quvchilarni o'z-o'zini nazorat usullari;
4. O'qitish jarayonida o'quvchilarning jamoaviy va

So'nggi yillarda pedagogikada va maktab amaliyotida o'qitish metodlari muammosiga alohida e'tibor berilmoqda. Shu muammo bo'yicha anchagina tadqiqotlar bajarilmoqda, ilg'or pedagogik amaliyotda o'qitishning samarador usullarining va ularning tizimlarini qo'llashning talaygina yo'llari topildi. Ammo, umumiy ta'lim maktabiga xususan, boshlang'ich ta'limga qo'yiladigan yangi talablar o'qitishning usullarini yanada takomillashtirishni taqozo qilmoqda. (8, 13)

Yuqorida qayd etilgandek, ta'limning mazmuniga qo'yilayotgan yangi talablarni – yosh avlodga xususan fanlarning asoslari bo'yicha yuksak ilmiy-nazariy bilimlar berishdan iborat bo'lib, bu ish nazariy bilim metodlariga, shu jumladan, o'quvchilarni mantiqiy fikrlash, mantiqiy operastiyalarni bajarish usullari bilan qurollantirishni tobora kuchaytirishni taqozo etadi.

O'qitishning nazariyasi metodlarni insoniyat tajribasidan oladi va ularni o'quv mashg'ulotlariga moslashtiradi. Shuning uchun o'qitish metodlari doimiy ravishda yangilanadi, takomillashadi, fan-texnikani rivojlanishi va ijtimoiy rivojlantirish asosida yangi metodlar vujudga keladi. O'qitish metodlarining juda ko'p turlari mavjud va ularning aniq sonini belgilab bo'lmaydi.

Ma'lumki, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshirish, erkin va teran fikrlashga, o'z fikrlarini ravon ifodalashga o'rgatishning zamonaviy usullaridan foydalanishning o'рни beqiyosdir. Bolalarning barkamol avlod bo'lib etishida so'zlashishi madaniyati, to'g'ri va mantiqli gapira olish qobiliyati bo'lmog'i lozim.

Bugungi kunda amalga oshirayotgan islohatlarimizning markazida o'quvchining ta'lim jarayonining sub'ekti – faol ishtirokchiga aylantirish yotadi. Bunga albatta interfaol usullarni (zamonaviy o'qitish usullarini) qo'llash orqali erishiladi. Interfaol atamasi inglizcha interast o'zaro ta'sirlanish (yoki interaction-o'zaro ta'sir) so'zidan olingan bo'lib, biror faoliyat yoki muammoli o'zaro muloqatda, o'zaro muomalada, o'zaro bahs, munozara, debat usulida, fikrlashish asnosida, hamjihatlik bilan hal etish ma'nosini anglatadi. Boshqaruv faoliyatiga nisbatan olganda, interfaol usul jamoaning o'z ichki potensialidan, ishlab chiqarish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'z-o'zini boshqarish, jamoa tashabbusini, innovastion (yangi) texnologiyalarni har tomonlama qo'llab quvvatlash va joriy qilish tushuniladi. [20]

Ta'limda interfaol metod – bu o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida ta'limni o'zlashtirish munosabatlarini kuchaytirishi, faollashtirish demakdir. Bugun fan, texnika va san'at jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan hamda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida, ijtimoiy holat o'zgarayotgan davrda maktablarda ta'limni xususan,

boshlang'ich ta'limni mazmun jihatidan yangicha o'qitish zarurat va zamon talabidir. [17]

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining texnologik tayyorgarligi boshlang'ich sinflarda pedagogik texnologiya elementlaridan samarali foydalanishni talab qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim jarayonida foydalaniladigan va keng tarqalgan pedagogik texnologiyalar quyidagilar:

- Muammoli o'qitish texnologiyasi
- O'yinli texnologiyalar
- Tanqidiy fikrlashni o'stirishga xizmat qiladigan texnologiyalar
- Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari
- Modulli texnologiyalar
- O'qitishning tabaqalashtirilgan va induvidual texnologiyasi
- O'qitishning jadallashtirish texnologiyasi
- Programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasi va bir qancha texnologiyalardir. (6, 12,15, 21,24,25,26,29,34)

Bu texnologiyalar orasida o'yin usuli alohida o'rin tutadi.

O'yinli texnologiyalar

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini o'quvchilarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikdagi faoliyatining asosiy turlaridan biri hisoblanadi. O'yinli faoliyat muayyan vazifalarini bajarishiga bag'ishlangan bo'ladi. Ular quyidagilar:

- maftunkorlik;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- davolovchilik;
- kommunikativlik;
- tashxis;
- millatlararo muloqat;
- ijtimoyillashuv.

O'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol harakter «ijod maydoni» ga ega bo'ladi. Tatqiqotchilar o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qaraydilar. O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, ta'lim faoliyatini rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo'llaniladi.

O'yinning didaktik maqsadi – bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka, ko'nikmalarni qo'llash, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi.

O'yinning tarbiyaviy maqsadi - mustaqillik, irodani tarbiyalash, ma'naviy estetik va dunyoqarashini shakllantirishda hamkorlikni, jamoaga kirib keta olishni, birdamlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi maqsadi - diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, solishtirish, o'xshashni topish, xayol, ijodiy qobiliyat, o'quv faoliyatini motivastiyalashni rivojlantirishga qaratilgan.

Ijtimoiylashuv maqsadi – jamiyatning me'yorlari va qadriyatlariga jalb qilinishi, ehtirolarni nazorat qilish, o'z-o'zini boshqarish va muloqatga o'rgatishni nazarda tutadi.

Pedagogik o'yinlar asosida o'quvchilarni o'quv faoliyatiga yo'llovchi o'yinli usullarni vujudga keltirish yotadi.[4]

Biz quyida ana shunday interfaol usullarini o'zida mujassamlashtirilgan o'yinlarni qanday qilib rejalashtirish mumkinligi haqida tavsiyalar berib o'tamiz.

«Maqollarda antonimlar»

Ma'lumki, o'zbek xalq maqollarida antonimlar ko'proq uchraydi. Shu bois bu shartda o'quvchilar navbatma-navbat antonimlar ishtirok etgan maqollaridan aytadilar. Masalan, «yaxshiga yondash, yomondan qoch», «do'st achitib gapirar, dushman kuldirib gapirar», «kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda» va x.k.

«Zinapoya» usuli

O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. So'ng xattaxtaga ushbu shaklda «zinapoya» chiziladi.

Ma'lumki, antonimlar o'z juftliklariga ega. Shundan kelib chiqib, ushbu juftlikning bittasi «zinapoya» ga yozib qo'yiladi, ikkinchisini esa guruhlardagi o'quvchilarning o'zlari topadi, ular zinalardan bosh zinaga chiqib borishadi. Bunda o'quvchilarda tezkorlik talab etiladi. Chunki qaysi guruh o'quvchilari birinchi bo'lib bosh zinaga chiqsa, ular g'olib bo'ladi. Sinfda nechta o'quvchi bo'lsa, zinalar soni shuncha bo'ladi.

«Izohli lug'at»

Buning uchun o'quvchilar ikki guruhga bo'linadilar. 1-guruh ishtirokchilari so'z birikmasi, frazeologik birikma yoki tasviriy ifodalarni aytadilar. 2-guruhdagi o'quvchilar esa 1- guruhdagilar aytgan so'z va birikmalar ma'nosini tezkorlik bilan izohlab beradilar. Shartni bajara olmagan guruh mag'lub hisoblanadi. Bu o'yin quyidagicha amalga oshiriladi:

O'zbekning shoh taomi: palov
 Ertalabki ovqatlanish: nonushta
 Ilonning yog'ini yalagan: ayyor
 Dala malikasi: makkajo'xori
 Aql gimnastikasi: shaxmat
 Tog' malikasi: archa va x.k.

Bu o'yinlarni ona tili darslarida 4-sinflarda o'tkazish maqsadga muvofiq. Bunday o'yinlar faqat bir mavzu doirasida cheklanib qolmay bir qancha mavzularda, ko'proq takrorlash darslarida o'tkazilishi mumkin.

O'qish darslarida «Rolli o'yinlar» usulini qo'llash mumkin.

«Rolli o'yinlar» - har bir ishtirokchi o'quvchi biror asardagi qahramon rolini o'ynar ekan, shu persanajni fikrlarini aniq anglashi va o'sha qahramon o'rnida so'zlashi shart. Shu o'yin orqali o'quvchi ma'lum ibrat va xulosalar chiqarishi mumkin.

Demak, interfaol usullarni ona tili va o'qish darslarida qo'llash natijasida o'quvchilar hozirjavoblikka o'rganadi, ularning lug'at boyligi oshadi, ilmiy-nazariy

bilimi yanada mustahkamlanadi. O'yin asosida tashkil qilingan dars albatta, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi, qiziqish esa intilishga, bilimlarni puxta o'rganishga olib keladi.

O'yinli texnologiyalarni amalga oshirish o'qituvchining ijodiy faoliyatini rivojlantirish metodlaridan foydalanishni taqozo qiladi. Ijodiy faoliyatning rivojlantirish metodlari G.S. Al'tshuller, O.G.Bagdanova, A.V.Brushlinskiy, G.Melxorn, B.Mironov, P.Yakobson va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodlarni ko'rib chiqamiz:

«6x6» metodi

6 kishidan kam bo'lmagan guruh 6 minut davomida guruh oldida turgan muammoni echishga yordam beradigan aniq g'oyani shakllantirishga harakat qiladilar. Har bir ishtirokchi alohida sahifalarga o'z fikrlarini yozib boradi. Shundan so'ng guruhda barcha tayyorlangan fikrlar muhokama qilinadi.

«Fikrlar hujumi» (mozgovaya ataka) metodi

Bu metoddan maqsad mumkin qadar katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, sinfda turli xildagi fikrlilikni vujudga keltirishdir. Bu metod A.F. Osborn tomonidan tavsiya etilgan. Bu metodning asosiy xususiyati va qoidasi bahs ishtirokchilari ishlab chiqqan g'oyalar tanqidini mutlaq ta'qiqlash, har qanday luqma va hazil, mutoyibani rag'batlantirishdir. «Fikrlar hujumi» ishtirokchilari miqdori 15 kishidan oshmasligi kerak. Mashg'ulot davomiyligi 40 minutgacha. Bu metoddan foydalanishning muvaffaqiyati o'qituvchiga bog'liq. (24)

Ta'lim-tarbiya jarayoniga «interfaol metodlar» nomi bilan kirib kelayotgan metodlardan biri bo'lgan «Aqliy hujum» ning maqsadi o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni erkin, mustaqil mulohaza yuritishga undash, hammani bir xil fikrlarni to'plash va masalaga ijodiy yondashuvni ta'minlashdan iborat.

«Aqliy hujum» - o'quv metodlarini hal qilishda keng qo'llaniladigan metod. U qatnashchilarning tasavvurlari, bor bilimi va imkoniyatlaridan unumli foydalanishga yo'naltirilgan. Mazkur metod o'quvchi oldiga qo'yilgan har qanday muammoli masalaga ko'p sonli yechimlar topishga imkon yaratadi.

Aqliy hujum foydalanilganda quyidagi **qoidalar**ga amal qilinadi:

- o'ylash jarayonida hech qanday baholashga yo'l qo'yilmaydi. Agar bu jarayondagi g'oyalar baholanadigan bo'lsa, qatnashchilar moddiy manfaatdorlik yo'lga tushadilar va o'z fikr-g'oyalarini himoya qilishga urg'u beradilar. Yangi fikrlar, yangicha kashfiyotlar xususida o'ylamay qo'yadilar;

- har bir o'quvchi bitta masala yuzasidan xilma-xil mulohazalar yuritishga yo'naltiriladi. O'quvchilarda kutilmagan fikr, favqulodda g'oyalar tug'ilmasa, qatnashchilar o'z fikrlarini qayta qo'llashga, bir-birlarini takrorlashga majbur bo'ladilar;

- g'oya va fikrlarning miqdori rag'batlantiriladi. Ma'lumki, miqdor odatda, o'sib sifatga aylanadi. Tezkor izchillikda katta miqdordagi g'oyalar paydo bo'lganda ularni baholash mumkin. Qatnashchilar o'z tasavvurlariga erk berishga imkoniyat yaratilishi kerak. Bu erkinlik natijasida yaxshi, betakror va kuchli g'oyalar tug'iladi;

- har bir o'quvchi o'z g'oyalar g'oyasiga asoslanishi va ularni o'zgartirish mumkin. Chunki fikrdan fikr tug'iladi, avval taklif etilgan g'oyalarni birlashtirish yoki o'zgartirish ko'pincha asos bo'lgan fikrdan kuchliroq, yaxshiroq g'oyalarni keltirib chiqaradi;

Aqliy hujumdan foydalanish **shartlari** quyidagilardan iborat:

- o'quvchilar erkin o'tiradigan qilib joylashtiriladi;
- o'quvchilarning g'oya va fikrlarini yozish uchun varaqlar tayyorlab qo'yiladi;
- hal etilishi lozim bo'lgan muammo aniqlanadi;
- ish jarayoni belgilab olinib, o'qituvchi «olg'a boring, g'oyalarga asoslaning, qo'ying, kengaytiring, o'zgartiring» kabi luqmalar orqali bahs-munozarani boshqarib turadi;
- qo'yilgan muammo yuzasidan barcha fikrlar tinglanadi va yozib boriladi;
- g'oyalar tugamaguncha ish davom ettirilaveriladi;
- barcha fikr va g'oyalar tinglangach yangi, kuch asosli va original g'oyalar o'quvchilar tomonidan rag'batlantiriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda pedagogik texnologiyani - o'quvchilar qobiliyati, imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta'lim shakllarini amalga oshirish uchun ko'zlangan natijaga erishishda eng qulay yo'l va usullarini tanlash va ishlab chiqish mahorati desa ham bo'ladi.

Darhaqiqat, ilg'or pedagogik texnologiyalar talim jarayoni unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarga bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ularda amaliyotda erkin foydalanish, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi.

Shuning uchun ham ta'lim ishiga texnologik yondashuv katta ahamiyatga ega. Ta'lim ishiga texnologik yondashuv:

- ta'lim jarayoni maqsadini aniq belgilashni;
- o'qish-o'qitish uzviy bog'lik bosqichlar, fazalar, amallarga ajratish, bo'lishni;
- ta'lim jarayonida mo'ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket bosqichma-bosqich amalga oshirishni;
- loyihalashtirilgan ishlar, amallarni barchasini bir xil bajarishni nazarda tutadi.

Pedagogik texnologiyada ta'lim jarayonining maqsadini belgilash muhim bo'lib, u rejalashtirgan natijalarni kafolatlashi lozim. Shuning uchun ham o'quvchilar maqsadini aniq belgilashga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Har bir o'qituvchi avvalo o'zi o'qitadigan o'quv predmeti va har bir o'tiladigan darsi maqsadini aniq belgilashi kerak.

Shuni ta'kidlash lozimki, belgilangan maqsad asosida o'tkaziladigan didaktik jarayonning aniq loyihasi ishlab chiqilsa, uni amalga oshirish osonlashadi.

Didaktik jarayon o'zaro uch komponentdan iborat: motivlar, o'quvchining o'quv–bilish jarayoni, boshqarish.

Didaktik jarayonning samarali o'tishida motivlar muhim o'rin tutadi. Chunki qiziqib, aniq maqsad asosida egallangan bilimlarga samarali bo'ladi.

Motiv - kishini biror ish-harakatni bajarishga undovchi davat, turtki. Shunday ekan, muallimlar bolada o'qish motivlarini hosil qilishga intilishlari va

uni o'stirishlari kerak. Motivlar o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni oson egallashlariga yordam beradi.

Motiv bolada bilim olishga ishtiyoq va qiziqish uyg'otadi. O'qituvchilar bundan mohirlik bilan foydalanishlari va o'quvchilarga beriladigan mustaqil ishlar tizimini ishlab chiqishlari foydadan holi bo'lmaydi.

Motiv hosil qilishda didaktik o'yinlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining har bir darsni tashkil etish uchun turli didaktik o'yinlardan foydalanishlari yaxshi samara beradi.

Chunki, 6-7 yoshli bolalar hayotida maktab davri ancha murakkab davr bo'lib, bolalar oldida jiddiy sinov turadi. Bola yangi hayot – maktab hayotiga kirib boradi. Endi u yangi jamoaning a'zosi ekanligini his etishga, intizomga bo'ysinishga, yangi rejimga moslashishga majbur bo'ladi. Bola yosh bo'lishiga qaramay, endi uni maktabda o'qish, uy vazifalarini bajarish, murakkab materiallarni o'rganish kabi zarur yumushlari ko'p. Muhimi o'yindan maktabga, kundalik majburiy va davomiy mehnatga o'tish bola hayotida tub burilishdir. Hatto maktabgacha tarbiya muassasalaridan kelgan bolalar uchun ham bu oson kechmaydi. Uydan maktabga kelgan bolalarga esa yana ham qiyin. Ayniqsa, sinfda 40-45 daqiqalik darsda o'tirish, tinglash va topshiriqlarni bajarish, uzoq aqliy mehnat bolani tez toliqtiradi. Bola maktabdan, o'qishdan sovib ketishi mumkin. Shuning uchun ham o'qituvchilar bolalarning maktabdagi hayotini qiziqarli tashkil etishga intilishlari, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga harakat qilishlari lozim. Motiv o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi. Uni bolalar yoshiga va psixologik hususiyatlariga mos didaktik o'yinlar va mustaqil ishlar vositasida hosil qilish mumkin. (12)

Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim jarayonida motivlar muhim o'rin tutadi. 6-7 yoshli bolalar faoliyati qiziqarli tashkil etilsagina samarali bo'ladi. Shunday darslarda bolalar diqqati to'liq jalb etiladi, xotirasi yaxshi ishlaydi. Motivlar o'quvchilarning bilimlarini chuqur egallashlariga yordam beradi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim jarayonini qiziqarli motivlar asosida tashkil etishga e'tibor qaratishlari zarur.

II bob. BOSHLANG'ICH SINFLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH TAJRIBA-SINOV ISHLAR

2.1. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi

Maktab ostonasiga ilk qadam qo'yib boshlang'ich sinfga qabul qilingan bolaning faoliyatida o'yin asosiy o'rinni egallaydi. O'yin ularning eng sevimli mashg'uloti bo'lib, ular har qanday mashg'ulotni o'yin bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladilar.

Shunday ekan, o'qituvchi o'quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg'uloti-o'yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvoffiq foydalanish bilan talim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlarni biz mazmuniga va amalga oshirish shakliga kura **ikki xil** tasnif qilamiz:

1. Mazmuniga ko'ra.
2. Amalga oshirish shakliga ko'ra.

1. *Mazmuniga ko'ra* didaktik o'yinlar quyidagi turlarga bo'linadi: tinch o'yinlar; harakatli o'yinlar; aralash turdagi o'yinlar.

2. *Shakliga ko'ra* didaktik o'yinlar quyidagi turlarga bo'linadi: musobaqa o'yinlari; sahna o'yinlari.

Quyida 1-sinf «Ona tili» darslarida qo'llash mumkin bo'lgan didaktik o'yinlar mazmuni bilan tanishtiramiz. Shu bilan birga, har bir o'yinni o'tkazish tartibini uch variantda misol tarzda keltiramiz. Didaktik o'yinlar mazmuniga ko'ra, qilingan tasnifga asoslanib joylashtiriladi.

Shuni eslatib o'tish joizki, ona tili va o'qish darslarida qo'llash uchun tavsiya qilinayotgan didaktik o'yinlardan foydalanishda qat'iy chegara mavjud bo'lmay, boshqa yuqori sinflarga ham moslashtirib foydalanish mumkin.

Tinch o'yinlarga quyidagilarni kiritish mumkin: "O'zim tekshiraman", "Hikoya", «U kim, bu nima?", "Topag'on", "Noto'g'ri jumla", "Bo'lishi mumkin emas", "Harflarni top", "O'qib ko'r-chi", "Davom ettir", "Safar", "Sirli so'z", "Zanjir", "O'yin – topishmoq", "Bu meniki", "Tez javob", "Rebus", "Krossvord».

Pedagogik amaliyot jarayonida qo'llanilgan ushbu o'yinlarning ayrimlaridan misollar keltiramiz.

“**Hikoya**” o'yinida, o'qituvchi doskaga bir nechta so'z yozib qo'yadi. O'quvchilar mustaqil ravishda shu so'zlar ishtirokida hikoya tuzadilar.

Hikoya tuzish jarayonida o'quvchilarning lug'at boyligi ortishi bilan birgalikda, gaplarni to'g'ri tuzish, tovushlarni to'g'ri tashkil qilish va mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi.

O'quvchilarning vaqt-vaqti bilan rag'batlantirish ularning o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi. Bu o'yindan ona tili darslarida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda, to'garaklarda foydalanish mumkin.

1-variant: Nafisa, soat, yomg'ir, kitob.

2-variant: Olma, kasal, o'rtoq, Abduvali.

3-variant: Mushuk, bobo, poliz, non, sichqon.

“**U kim, bu nima?**” o'yinida, stol ustiga bir qancha predmetlar terib qo'yiladi. O'qituvchi shu predmetlardan birortasini ta'riflaydi. O'quvchilar shu belgilar asosida gap nima haqida borayotganligini topadilar.

Bu o'yinning afzallik tomoni shundaki, undan dars davomida o'quvchilar diqqatini jamlash, qo'llarga dam berish maqsadida yoki yangi tovushlar bilan tanishtirish, ona tili darslarida yangi mavzuni bayon qilish jarayonida ham foydalanish mumkin.

Bu o'yin o'quvchilarda, ziyraklik, sinchkovlik sifatlarini va mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, bu o'yindan dam olish daqiqalarida ham unumli foydalanish mumkin.

1-variant: U shar shaklida. Uni katta-katta sportchilarimiz ham stadionlarda o'ynaydilar. Yosh bolalar ham uni sevib o'ynaydilar.

(Javob: ”Koptok”)

2-variant: U barcha o'quvchilarning o'rtog'idir. Onalarimiz ham, otalarimiz ham uni juda yaxshi ko'radilar.

(Javob: “Kitob”)

3-variant: U shunday narsaki, bizga vitaminlarga boy meva beradi, xohlasak undan stol yoki stul ham yasash mumkin.

(Javob: “Daraxt”)

“**Davom ettir**” o'yinida, o'qituvchi hikoyani boshlab beradi. O'quvchilar uni davom ettiradilar. Bunda o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyati rivojlanib, bayon yoki insho kabi ijodiy ishlar yozish malakasi rivojlanadi va so'z boyligi ortadi. Bundan tashqari, ularda mustaqillik, o'z kuchiga ishonch hissi rivojlanadi.

“**Davom ettir**” o'yinida ona tili, o'qish darslarida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkin.

1-variant: “ Umida barvaqt maktabga kelayotganida yo'lda...”.

2-variant: “Havo ilib, qorlar erib boshladi...”.

3-variant: “Biz sinfimizdagi barcha o'quvchilar, hayvonot bog'iga bordik...”.

Harakatli o'yinlarga quydagilar kiradi: “ U nima qilyapti?”, ”Jonli hikoya” va “Quruvchi”.

“**U nima qilyapti**” o'yinida, o'quvchilardan biri bolalar oldiga chiqib harakat qiladi. O'quvchilar jamoasi birgalikda uning harakatlarini izohlab berishlari lozim. Bunday o'yin o'qish va ona tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish, ziyraklik va zeriktirmaslik uchun o'tkaziladi.

“**Jonli hikoya**” o'yinida, o'qituvchi so'zlar yozilgan qog'ozlarni o'quvchilarga tarqatib beradi. Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga hikoya qilib beradi. (Qog'ozlarda yozilgan so'zlar birgalikda shu hikoyani hosil qiladi.) O'qituvchi hikoyani ikkinchi marta o'qib berganda o'quvchilar qo'llaridagi qog'ozlarni shunday ketma-ketlikda joylashtirishlari kerakki, qog'ozlarga yozilgan so'zlar bir butun hikoyani hosil qilishi lozim. Bu o'yinni o'tkazishda darslikdagi hikoyalar yoki darslikdan tashqari hikoya va ertaklardan foydalanishlari mumkin.

1-variant: Bahor kelishi bilan havo iliy boshlaydi. Daraxtlar gullab, maysalar ko'kara boshlaydi.

2-variant: Olimjon ko'chada yig'layotgan bolani ko'rib qoldi. U koptogini ariqqa tushirib yuboribdi. Olimjon bolaning koptogini olib berdi.

3-variant: O'rmon shohi sher yig'in o'tkazdi. Ular tulkixonning ishlarini muhokama qildilar. Tulkixon aybini bo'yniga oldi.

“Quruvchi” o'yini o'quvchilarni guruhlariga bo'lib, darsda o'tilgan mavzuni yoki yangi mavzuni mustahkamlash qismida yoki darsdan tashqari vaqtda o'tkazilishi mumkin. O'qituvchi avvaldan darsga tayyorgarlik ko'rib, qog'ozdan yoki penoplast bo'lakchalaridan “g'ishtchalar” yasaydi va bu “g'ishtchalarga” savol yozilgan qog'ozchalarni yopishtirib chiqadi. “g'ishtchalar” soni o'quvchilar soniga teng yoki ko'p bo'lishi kerak, guruhlariga “minora” yoki “devor” qurishlari uchun joy ajratiladi. Har bir guruhdan bittadan bola chiqadi va “g'ishtcha” ni olib savolni o'qiydi. Agar savolga bolalar to'g'ri javob topsalar o'zlarining “maydoncha” lariga “g'isht” ni teradilar. Agar noto'g'ri javob bersalar, o'qituvchi “g'ishtcha” ni olib qo'yadi. O'yin shu tahlidda barcha o'quvchilar bittadan “g'ishtcha” olib bo'lgunlarga qadar davom etadi. “Qurilish maydonchasi” da eng ko'p g'isht tergan o'quvchilar guruhi g'olib hisoblanadi.

Aralash tipdagi o'yinlarga quyidagilar kiradi: ”Nima yo'qolib qoldi”, ”Pochtachi”, ”Kun va tun”, ”Qarmoq”, ”Meni tushun”, “Iztopar”, ”So'z o'yini”, ”Xat kimniki”, ”Izma-iz”.

“Nima yo'qolib qoldi” o'yinida, stol ustida bir necha yoki alohida buyumlar sur'ati tushirilgan kartochkalar joylashtiriladi. O'quvchilar stol ustini yaxshilab kuzatib, narsalarni eslab qoladilar. Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga bildirmasdan ularning bittasini olib qo'yadi. O'quvchilar stol ustidan nima yo'qolib qolganini topishlari lozim. Bu o'yindan darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkin.

Bu o'yin ayniqsa alifbe davrida harflarni o'rganish jarayonida juda qo'l keladi.

“Qarmoq” o'yini: Bu o'yindan barcha darslarda qo'shimcha savollar berish yoki turli ertaklarda foydalanish mumkin. Baliqchalar shaklidagi qog'ozchalarga savollar yoziladi va bir chetiga temir qistirg'ichlar qistiriladi. Qarmoq shaklidagi tayoqchalarning uchiga ip va ipning uchiga magnit bo'lakchasi bog'lab qo'yiladi.

O'quvchilar bu “qarmoqlar” vositasida “baliqchalar” dan birini tutib olishlari va undagi savolga javob berishlari lozim bo'ladi.

So'z o'yini: o'quvchilar guruhlariga yoki qatorlarga ajratiladi. Har bir guruh boshidagi o'quvchiga har xil harf yozilgan qog'oz tarqatiladi. O'yin boshlangunga qadar guruh ishtirokchilari qog'ozga qanday harf yozilganligini ko'rmasliklari lozim. O'qituvchi buyruq berishi bilanoq, boshlovchi o'quvchilar qog'ozni o'nlab qarab, unda yozilgan harfni ko'radilar va shu harf bilan boshlanadigan so'z topib turgan o'quvchiga uzatadilar. Guruh yoki qator oxiridagi o'quvchi oxiri tugagach, qog'ozni o'qituvchiga keltirib topshiradi. O'yinni birinchi bo'lib tugatgan va so'zlarni to'g'ri yozgan o'quvchilar guruhi g'olib sanaladi.

Bu o'yindan dars jarayonida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ertaklarda foydalanish mumkin.

2.2. Boshlang'ich sinf matematika darslarida foydalaniladigan didaktik o'yinlar

Boshlang'ich sinf matematika darslari uchun juda ko'plab didaktik o'yinlar yaratilgan. Matematikadan sanoqqa doir ba'zi didaktik o'yinlarni quyidagi guruhlarga tasniflash mumkin.

1-guruh. *Birinchi o'nlik doirasidagi son tarkibi malakalarini mustahkamlovchi o'yinlar:* “Buyumlarni 10 gacha sanash”, «To'g'ri va teskari sanash», « Ikkinchi qo'shish va ayirish».

2-guruh. *Son tarkibini mustahkamlovchi o'yinlar:* «4 soni va raqami», “Teatr”, “ Nima o'zgardi?”. «Norvoncha», «Zanjircha».

3-guruh. *O'nlikdan o'tib hisoblash malakalarini mustahkamlovchi o'yinlar:* «Ketgan kim?» va x.k.

4-guruh. *Bir necha birlikka kamaytirish va orttirish, masalasini echish malakalarini mustahkamlovchi o'yinlar:* «Topchi, qancha?» va x.k.

1-guruh bo'yicha “Buyumlarni 10 gacha sanash” ga doir didaktik o'yin: **“Jimjitlik”**.

Didaktik topshiriq: bolalarning oddiy sanoq haqidagi tushunchalarni aniqlash va mustahkamlash.

O'yin topshirig'i: aniq buyumlarni “xayolda” sanab, kerakli sonni barmoqlar bilan ko'rsatish.

O'yinning borishi: o'quvchi boshlovchilik vazifasini bajaradi.

O'qituvchi:

- Bolalar, “Jimjitlik” o'yinini o'ynaymiz. Men sizlarga hozir har xil narsalarni ko'rsataman. Siz ularning sonini topishingiz kerak bo'ladi.
Bolalar birdan gapga tushib ketadilar.
- Yo'q bolalar. Javob qaytarishdan oldin qo'l ko'tarish kerak.
O'qituvchi bolalarga doira va cho'plarni sanatadi.
- Endi men sizlarga narsalarni ko'rsataman. Sizlar ovoz chiqarmasdan sanab, qancha bo'lganini barmoqlaringiz bilan ko'rsatasiz.

O'qituvchi 4 ta qo'g'irchoqni ko'rsatganda bolalarning hammasi 4 ta barmog'ini ko'rsatadi. Sinfda jimjitlik. Bolalarning butun diqqat-etibori topshiriqni bajarishga qaratilgan.

O'qituvchi:

- Barakalla hammangiz to'g'ri hisobladingiz. Endi men sanoq cho'pni bir qo'limdan ikkinchi qo'limga olaman, sizlar esa ularni ovoz chiqarmasdan sanang, keyin menga qancha bo'lganini ko'rsatasiz.

Bolalar o'qituvchining harakatlarini kuzatib sanashadi va 10 ta barmog'ini ko'rsatishadi.

O'qituvchi:

- Endi kvadratlarni sananglar,- deydid, taxtachaga ketma-ket kvadratlarni qo'yadi.

Bolalar sanashadi va 6 ta barmog'ini ko'rsatishadi.

Bu o'rinda bolalarning birinchi o'nlik haqidagi bilimlarining taxminiy darajasi aniqlanadi, qancha narsa ko'rsatilsa, o'shani barmoq bilan sanab ko'rsatish malakasi mustahkamlanadi.

Bundan tashqari, ularda ovoz chiqarmay, “Xayolda” sanash ko'nikmalari ham shakllanadi. Bolalar aslida sanashga ovoz chiqarib takrorlamasdan birdaniga erisha olmaydilar, jim o'tirishni talab etuvchi o'yin qoidasigina ularni bunga majbur qiladi va ular ovoz chiqarmay sanaydilar. Bunday qilishning qulay tomoni shundaki, bolalarning butun diqqat e'tibori faqat topshiriqni bajarish bilan band bo'ladi. Keyingi darsda o'yin shartlari yana ham murakkablashtiriladi. Bu o'yin orqali o'quvchilarda tez harakat qilish malakasi mustahkamlanadi. Shu bilan birga topshiriqni kim tez, kim esa sekin bajarayotganini aniqlab olish imkoni tug'iladi.

“To'g'ri va teskari sanash” doir didaktik o'yin: **“Ko'rganni eslab qolish”**

Didaktik topshiriq: qo'shiq sanash yo'li bilan geometrik shakllar miqdori bilan bog'liq ravishda son qatorini tuzish.

O'yin topshirig'i: o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan namunaga 3-4 daqiqa davomida diqqat bilan qarab olib, geometrik shakllarining soni va qanday joylashganini aniqlash hamda ularni o'zining daftariga to'g'ri yozish.

Foydalaniladigan buyumlar:

- 6 ta qizil doiracha va 6 ta ko'k kvadrat solingan individual konvert;
- o'rtasidan qizil chiziq tortilgan qalin oq qog'oz;
- o'qituvchining qo'lida geometrik shakllar yopishtirilgan namunalar.

Bolalar tezlik bilan ko'k kvadratlarni yoyadilar oradan bir oz vaqt o'tgach, eng ziyrak o'quvchilar qo'llarini ko'taradilar. 15-18 nafar bola 30-50 sekund maboynida topshiriqni bajaradi. Ba'zi bir bolalar beparvo va befarq bo'ladilar. Masalan, bolalardan biri uyga o'xshash shakllarni teradi. (Bu erda shakllarning nomlari bolalarga oldindan o'rgatilganligi nazarda tutiladi.)

O'yinning borishi o'qituvchi o'quvchilarga geometrik shakllar rasmi solingan konvertlarni tarqatadi. Bolalar konvertlarni tarqatadi. O'qituvchi konvertlar bilan birga oq qog'oz ham tarqatadi.

- Bolalar, - deydi o'qituvchi - hamma shakllarini bir erga to'plab, partaning chetiga qo'yinglar. O'yinni mana bunday tartibda o'ynaymiz: men sizlarga kvadratlar yoki doiralar shakllari solingan qog'ozlar namunasini ko'rsataman (ko'rsatadi). Sizlar esa sanab, qog'ozda qancha shakllar borligi va ular qanday joylashganligini eslab qolinglar. Ungacha sanayman, undan so'ng namunani olib qo'yaman, sizlar esa qo'lingizdagi qizil chizikli oq qog'ozlarga shakllarni xuddi namunadagidek joylashtirishingiz lozim.

Dastlab o'qituvchi eng oddiy usulni (kamroq shakllar rasmi solingan bir xil shakllarni) tanlaydi.

- Diqqat! – deydi o'qituvchi, - ko'rsata boshlayman bir, ikki, uch!

To'rt nafar bola esa barcha kvadratlarni qatorasiga terib qo'ydi. Uch nafari doirachalarni bir chiziqqa tizishdi. O'qituvchi bolalarga o'z-o'zlarini tekshirish imkonini berish maqsadida namunani ikkinchi marta ko'rsatadi va topshiriqning to'g'ri yoki noto'g'ri bajarilganligini tekshirib chiqishni taklif qiladi. Oradan 5-10 sekund o'tgach, namunani olib qo'yadi.

- Endi, bolalar, - deydi o'qituvchi, - aytinglar-chi qancha kvadrat qo'ydingizlar?
- Beshta.

- Barakalla, hammangiz ham g'olib bo'ldingiz. Endi men sizlarga qiyin namunani ko'rsataman. Sizlar diqqat bilan qarab turing. Diqqat: bir, ikki, uch!

O'qituvchi ikkinchi namunani ko'rsatadi.

Ko'pchilik bolalar birdaniga kvadratlarni qo'llariga oladilar.

O'qituvchi ularni ogohlantirib: “Sanab chiqishni unutmadingizlarmi?” – deydi.

3-4 nafar bola ko'zini kvadratlardan olib, namunaga diqqat bilan qaraydi va sanay boshlaydi. Shundan so'ng o'qituvchi namunani olib qo'yadi. Ikkinchi marta navbat kelganda bolalar shakllarni birinchisiga qaraganda tezroq joylashtiradilar. O'yin uchinchi marta jonliroq o'tadi.

Shunday qilib, o'yin paytida bolalar sanashni, shakllarni bir chiziqqa joylashtirishni ham bilib oladilar. Buning natijasida shakl nomlari mustahkamlanadi va o'yin yaxshi o'zlashtiriladi. O'qituvchi esa o'yin natijasida bolalar xotirasi qanchalik rivojlanganligini aniqlab oladi.

2–guruh. *Son tarkibini mustahkamlovchi o'yinlar.*

Ko'pchilik o'yinlar eng qiyin matematik bog'lanishlardan biri - son tarkibining bolalar tomonidan o'zlashtirilishiga ko'maklashuvchi ajoyib vositalardan hisoblanadi. Dasturga muvofiq, birinchi o'nlikdagi son va raqamlar bilan dastlabki tanisha boshlagan paytdayoq bolalar son tarkibini o'qib olishlari lozim. Shuni ham aytish kerakki, bu vazifa ular uchun hamma vaqt ham son bo'lavermaydi, chunki buning uchun bolalarda sonlarning tarkibini farq qilishga asoslangan tahlil, tafakkuri yaxshi mashq qildirilgan bo'lishi talab etiladi.

O'quvchilarning son va raqamlarni uzoq vaqt esda qolishlarining o'zi bilan ish bitmaydi. Shuni unutmaslik kerakki, son va raqamlarni, bu tarzda eslab qolish etti yahar bolalar uchun ham xarakterlidir. O'qituvchi ishining murakkabligi ham ana shundadir.

Materialni puxtaroq o'zlashtirish va aniqlashtirish uchun ”Teatr”, “ Nima o'zgardi?” kabi maxsus o'yinlar o'tkazish yaxshi natija beradi.

2-guruh bo'yicha "4 soni va raqami" ga doir didaktik o'yin: **“Nima o'zgardi?”**.

Didaktik topshiriq: 4 soni tarkibining turli usullarini mustahkamlash.

O'yin topshirig'i: bolalarning turgan joylarini eslab qolish, ularning joy almashganlarini bilish (ya'ni 4 soni tarkibining turli ko'rinishiga doir yozilish usulini ko'rsatish).

O'yinni boshlashdan oldin og'zaki hisoblash mashqi o'tkaziladi. Bolalar masala o'ylab topishadi. Masalan, Karim: ”Bitta daraxt bor edi, yana uchta daraxt o'tqazildi, endi daraxtlar 4 ta bo'ldi” - deydi. “ Ikkita mashina turgan edi, yana ikkita mashina ularning yoniga kelib to'xtadi,- deydi Rahim,- endilikda mashinalar soni 4 ta bo'ldi”. O'qituvchi bu bolalarni doskaga chiqarib, ular aytgan narsalar “xayollarida” qanday joylashtirilgan bo'lsa, o'sha narsalarni xuddi shunday tartibda jadvalga joylashtirishni taklif qiladi.

O'qituvchi:

“4 sonini yana qanday hosil qilish mumkin?” – deb so'raydi. Bolalar uzoq o'ylanib qolishadi. O'qituvchi 4 nafar bolani chaqirib, ularni bir safga qo'yadi. Keyin o'quvchilardan biriga bolalarning safda qanday turganliklarini diqqat bilan ko'rib olishini so'ngra sinfdan chiqib turishlarini buyuradi. O'qituvchi bolalarning birini alohida, uchtasini esa yonma-yon qo'yadi. Tashqariga chiqqan bola kirib keladi. U o'zgarishni ko'rgach: “Uch o'quvchi bir joyda, bittasi alohida turibdi” – deydi.

- Jami qancha?- deb so'raydi o'qituvchi.
- To'rt nafar – javob beradi o'qituvchi.
- Demak to'rt sonini qanday hosil qilish mumkin.
- Uchga birni qo'shish bilan.

O'qituvchi doska oldiga boshqa o'quvchini chaqiradi. U ham safda turgan bolalarga bir nazar tashlab, tashqariga chiqadi. Qaytib kirgach: ”Dastlab chap tomondan uch kishi, o'ng tomonda bir kishi turgan edi, endi esa har ikkala tomonda ikkitadan kishi bor”, - deydi.

- Bunga qanday erishildi? – so'raydi o'qituvchi.

- Uchta bo'lib turganlardan biri yakka turgan bolaning yoniga o'tib olibdi.
- Demak, - deydi o'qituvchi, -4 sonini yana qanday hosil qilish mumkin ekan?
- Ikkiga ikkini qo'shib, - javob beradi o'quvchi, So'ngra uchinchi o'quvchi sinfdan chiqib turadi. O'qituvchi uch bolani bir joyda, bittasini esa alohida turishini aytadi. Sinfga qaytib kirgan o'quvchi yuz bergan o'zgarishni aytadi.
- Qaysi tomondagilar ko'pchilikni tashkil etadi? Mana bu tomondagilarmi? To'g'ri. Demak, 4 soni yana qanday hosil bo'lar ekan?
- Birga uchni qo'shish bilan.

So'ngra o'qituvchi butun sinfga murojat qilib:

- 4 soni qanday hosil bo'ladi? - deb so'raydi. Ko'pchilik o'quvchilar javob berish uchun qo'l ko'taradilar. Chaqirilganlar to'g'ri javob beradilar:
- To'rtta birdan, uch bilan birdan, ikki bilan ikkidan, bir bilan uchdan.

O'yin jonli va qiziqarli o'tadi. Alohida-alohida so'rash natijasida doskaga chiqarilgan o'quvchilarnigina emas, sinfdan o'tirgan boshqa o'quvchilarning ham to'rt sonining tarkibini yaxshi tushinganlari aniqlanadi. O'yin besh minut davom etadi. Shundan so'ng o'qituvchi bolalarni 4 raqami bilan tanishtiradi.

3-guruh. *O'nlikdan o'tib hisoblash malakalarini mustahkamlovchi o'yinlar.*

Birinchi o'nlik ichida hisoblash dastur asosida uzoq davom etadi. Bolalarda faqat o'nlik ichida hisoblash malakasi hosil bo'ladi. Ular ungacha yoki hatto ikkinchi o'nlik ichida ham tez va dadil hisoblayveradilar, biroq o'nlikdan o'tish ular uchun qiyinchilik tug'diradi.

Ko'pincha birinchi sinfdan 7 ga 5 ni, 8 ga 6 ni qo'shishda, shuning singari qo'shish amallarini bajarish paytida ham bolalar barmoq yordamida hisoblashda davom etadilar.

O'nlikdan o'tib hisoblashda birinchi o'nlik ichida hisoblash paytida mustahkamlangan ikkilik, uchliklarni qo'shib hisoblash malakalari yo'qola borib, yana bittadan qo'shib hisoblash qoidasi paydo bo'ladi. O'nlikdan o'tib hisoblashni yanada yaxshiroq mustahkamlash (10 gacha bo'lgan sonlarni tez topib, qolgan sonlarga qo'shish: $(8+2=10, 10+2=12)$) maqsadida “Tuk-tuk”, “Do'koncha”,

”Narvoncha”, “Jadvalni qidirib top”, ”Sanayver”, ”Hisoblashni kim bilsa, davom ettiraversin” kabi o'yinlar o'tkazilgani maqul.

Didaktik o'yin: “ **Ketgan kim?**”

Didaktik topshiriq: son qatorini, qaysi son qaysi son dan keyin kelishini bilib olishni mashq qildirish.

O'yin topshirig'i: bolalarning safga tizilish tartibini bilib olish, ularni sanab chiqib, shaxsi bilan solishtirish (Vali - beshinchi, Iroda – uchinchi va hokazo). Hisob bo'yicha son qatoridan chiqib ketganning kim ekanini bilish, uning nomini aytish.

O'yinning borishi: o'yin boshlangunga qadar bolalar bilan bir oz tayyorgarlik o'tkaziladi. O'qituvchi 6 kishini doskaga chiqarib: Ahmad - birinchi, Sharif-ikkinchi - deydi. So'ngra ularning har biridan sanoq bo'yicha nechanchi ekanligini so'raydi. Bu esa har bir bolaga o'zining tartib raqamini bilib olishga yordam beradi. Shu maqsadda u hamma chaqirilgan bolalardan: “Sen nechanchisan?” deb so'rab oladi. O'quvchilar: “Men – beshinchi, men – ikkinchi, men – to'rtinchi” va hokazo deb, javob beradilar. Shundan keyin o'qituvchi bolalarga yana bir marta yaxshilab hisoblab chiqishni, kim-kimning ketidan turganini eslab qolish va kimning raqami nechanchi ekanligini bilib olishni taklif etadi.

O'qituvchi o'quvchilardan birini chaqirib shunday deydi:

- Lola, bolalarga qarab, ularning joylashish tartibini raqamini eslab qol. Keyin sinfdan chiqib tur. Seni chaqirganimizda kelib, kim ketganini aytib berishing kerak. Agar sen to'g'ri aytsang, biz qarsak chalamiz, yanglishsang indamay turaveramiz.

Lola sinfdan chiqadi. O'qituvchi beshinchi bolani joyiga o'tqazib qo'yadi. Qolgan o'quvchilar bir-birlariga yaqinroq turib oladilar. Lola kirib keladi, doska oldidagi safga, butun sinfga nazar tashlab, kerakli o'quvchini qidiradi.

U 2 minutcha o'ylanib qoladi, o'rniga borib o'tirgan o'quvchini ko'rib, uning ilgari qaerda turganini ko'rib, uning ilgari qaerda turganini eslaydi va beshinchi!- deydi. Bolalar xursandchilikdan qarsak chalib yuboradilar.

Endi Yo'ldosh eshikka chiqadi. Yo'ldosh sinfga kiriboq, uchinchi bola yo'qligini aytadi. O'quvchilar qarsak chalishadi. So'ngra Vahob sinfdan chiqib turadi. Oltinchi o'quvchi joyiga borib o'tiradi. Vahob sinfga kirib: "Ikkinchi bola o'z joyiga borib o'tiribdi", - deydi. Sinfdan jimjitlik. O'qituvchi: "Yana bir o'ylab ko'r, mana bu tomonda kim turganini eslachi", - deydi. Vahob indamaydi. O'qituvchi o'tirgan o'quvchilardan biriga murojat qilib, "Baxtiyor ketgan kim?" desa, u istar-istamas, "To'qqizinchi" deb javob beradi. Shundan so'ng o'qituvchi oltinchi bolani yana o'z joyiga chiqaradida uning qaerda turganligini Baxtiyordan so'radi. Baxtiyor oltinchi o'quvchini ko'rsatgach, o'qituvchi uning tartib raqami necha ekanligini aytib berishni so'raydi. Baxtiyor, - deydi o'qituvchi, - demak, ketgan kim? Baxtiyor: Oltinchi – deb dadil javob beradi. O'yin oltita o'yinchidan har biri navbatma - navbat borib joyida o'tirganiga qadar davom ettiradi. Kim to'g'ri topsa, o'qituvchi uning g'olib chiqqanligini aytadi. Har bir berilgan to'g'ri javobdan so'ng bolalar qarsak chalishadi. O'yin 10 minut davom etadi. Bu o'yin g'oyat foydali bo'lib, mantiqiy fikrni, xotirani, bir narsani ikkinchisidan ajrata bilish qobiliyatini o'stirishga yordam beradi.

4-guruh. *Bir necha birlikka kamaytirish va orttirish, masalasini yechish malakalarini mustahkamlovchi o'yinlar.*

Bir necha birlikka orttirish va kamaytirish masala hamda misollarini yechish asosan ikkinchi yarim yillikdagi masalalarning eng qiyin turlaridan biridir. Bu xildagi masala va misollarni echishdagi murakkablik shundaki, savollarni ifodalash va bajariladigan amallarni tartib bilan so'zlab berish fikrning mantiqiy jihatidan to'g'ri bo'lishi bilan bog'liqdir. Fikrning bu tariqa mantiqan to'g'ri bo'lishi lozimligi katta o'rin tutishi aslida oddiygina bo'lgan masalani tushunib olinishiga to'sqinlik qiladi. Hamma bolalar raqamlar bilan istalgan bir amalni bemalol uddalay oladilar. Biroq ular ko'paytirish va kamaytirish misollarni yechishda ko'pincha qiynaladilar. Ular hali sonlarni oddiy suratda qo'shishni

masalan, $5+2=7$ amali bilan xuddi shu amalni so'zlar vositasida ifoda qilinganda chiqadigan natija (masalan, menda 5 ta olma bor edi, Vasilada esa mendagidan 2 ko'p iborasi) teng ekanligini yaxshi tushuna olmaydilar. Bolalarning

ruhan yaxshi dam olishlari maqsadida “Narvoncha”, “Kim biladi”, “Top-chi, qancha?” va boshqa o'yinlarni o'tkazish mumkin.

Didaktik o'yin: “ **Top - chi qancha?** ”

Didaktik topshiriq: soni biror songa kamaytirgan yoki orttirish natijasini topa olishni mashq qilish.

O'yin topshirig'i: o'qituvchi berayotgan topshiriqlarni kuzatib borish. Ko'zni bekitib, savatchadagi qo'ziqorin qancha bo'lib qolganligini hayolda hisoblash, so'ngra natijani qo'shib hisoblash yo'li bilan tekshirish foydalaniladigan buyumlar: savatcha va kartondan ishlangan qo'ziqorinlar. O'qituvchi o'yin boshlanishidan oldin o'quvchilarga quyidagi masalani yechishni tavsiya qiladi. Aka-singil o'rmonga borishdi. Akasi 3 ta qo'ziqorin topdi, singlisi esa akasinikidan 5 ta ortiq qo'ziqorin topdi. Singlisi qancha qo'ziqorin topgan?

Sinfdagi o'quvchilarning ko'pchiligi topshiriqni to'g'ri bajaradi.

- Ana endi, - deydi o'qituvchi, - “Topchi, qancha?” o'yinni o'ynaymiz. Qutichada bir qancha qo'ziqorin bor. Ulardan bir qismini savatchaga solaman, sizlar esa uning qancha ekanligini sananglar.

Bolalar sanashadi: 5 ta.

O'qituvchi:

“Savatchaga yana 10 ta qo'ziqorin solaman, bu yerdagi qo'ziqorinlar nechta bo'ldi?”

Ko'pchilik o'quvchilar qo'l ko'taradilar va 15 ta deb javob beradilar.

- Endi,- deydi o'qituvchi, - bunday qilamiz: mening qancha qo'ziqorin qo'yayotganimni esda tutinglar. Bolalar hisoblaydilar:

- 12 ta.

- Qutichada esa savatchadagidan 2 ta ko'p qo'ziqorin bor.

Sharif, qani ayt-chi, qutichada qanday qo'ziqorin bor?

- 17 ta qo'ziqorin bor, - deb javob beradi Sharif.

Beriladigan javob har xil bo'ladi: 17, 15 va hokaza. Ko'pchilik 15 deb hisoblaydi.

- Kim to'g'ri sanaganini qanday bilamiz? – deydi o'qituvchi.
- Hisoblab ko'rish kerak, - deydi Nazira.
- Yana boshqacha qanday tekshirish mumkin? – so'raydi o'qituvchi.
- Savatchada 15 ta qo'ziqorin bor edi. Qutichadagida savatchadagidan 2 ta ortiq qo'ziqorin tashladingiz, hammasi bo'lib 17 ta bo'ldi.

- Demak, deydi o'qituvchi, - 2 ta deyilganda, 2 soni ko'chirilishi kerak ekan. Savatchada 15 ta, qutichada esa undan 2 ta ko'p qo'ziqorin bor. Qani, savatchaga solib bo'lgunimcha, sizlar ko'zlaringizni yumib, savatga qancha qo'ziqorin bo'lishi kerakligini hisoblab turinglar. Ko'zlaringizni ochinglar. Ayting-chi savatchada qancha qo'ziqorin bor?

- 17 ta, deydi Rahim.

- Rahim, - deydi o'qituvchi, - doskaga chiqiboq savatchalardagi qo'ziqorinlarni sanaydida, baland ovoz bilan:

- 17, - deydi.

- Rahim, savatchadagi qo'ziqorinlar, - deydi o'qituvchi, - qanday qilib 17 ta bo'lib qoldi?

Savatchada 15 ta qo'ziqorin bor edi, qutichada 13 ta qolibdi, demak, 2 tasini siz olgansiz, - deb javob beradi Rahim.

- To'g'ri aytasan, - uning gapini tasdiqlaydi o'qituvchi, - mana o'sha ikkitasi mening qo'limda. Qani, eslanglarchi, qo'ziqorinlarni savatga tashlayotganimda nima degan edim?

- Demak, - deydi o'qituvchi, - “ko'p” deyilganda nima qilinishi kerak?

- Qo'shish! – javob berishadi bolalar.

- To'g'ri, - ularning gapini ma'qullaydi o'qituvchi, - yozinglar: $13+2=15$.

Shundan keyin o'qituvchi ikki o'quvchini doskaga chaqiradi. Ulardan biri masala aytadi, ikkinchisi esa uni yechadi.

- O'lmas, sen shunday bir misol topki, unda bir joydagi narsa ikkinchi joydagisidan ikkita kam bo'lsin, - deydi Karim.

- Daraxtning bir shoxida, - deydi O'lmas, 10 ta chumchuq, ikkinchisida esa undan 2 ta kam chumchuq kelib qo'ndi.

- Bunda qanday savol beriladi? – so'raydi o'qituvchi.
- Boshqa shoxga qancha chumchuq kelib qo'ndi? – deydi O'lmas.
- Boshqa shoxda 8 ta chumchuq o'tiribdi, - behosdan javob berib yuboradi

Aqida.

- 8 ta ekanligini qanday bilding, Gulnoza? – deydi o'qituvchi.
- Unda 10 dan 2 ni ayiraman.
- Nega ayirding? - yana so'raydi o'qituvchi.
- Shuning uchunki, ikkinchi shoxda ikkita qushcha kam edi.

O'yin 10 minut davom ettiriladi. O'yindan so'ng o'tkazilgan tekshirish bolalar shuncha kam yoki shuncha ko'p deyishning ma'nosini yaxshi bilib olganlarini ko'rsatadi. Bu o'yinni o'ynash jarayonida bolalar nima qilish kerakligi va nima uchun shunday qilish kerakligini aniq aytib beradigan bo'lib qoladilar.

Boshlan'igch sinf matematika darslarida qo'llagan sanoqqa doir didaktik o'yinlardan yana bir nechtasini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Didaktik o'yin: **“Qaysi biri qo'shildi”**.

Didaktik topshiriq: son qatori haqidagi tushunchani mustahkamlash.

O'yin topshirig'i: oldin turgan bolalarni sanab chiqib yana qancha qo'shilganini aytib berish.

O'yin bayoni: bir necha bola bir qatorga turadi. Qolgan bolalar ularni sanab chiqishadi. O'qituvchi imo-ishorasi berilishi bilan o'tirgan o'quvchilar ko'zlarini yumadilar. O'qituvchi ovoz chiqarmasdan yana bir o'quvchini doskaga chaqirib, saflanganlar qatoriga turg'azib qo'yadi. U mumkin degandan so'ng o'quvchilar ko'zlarini ochib, nechanchi kelib qo'shilganini aytib berishadi.

Bu o'yin “Ketgan kim” o'yiniga qaraganda anchagina yengil. Uni dastlabki kunlarda o'tkazish mumkin. Bunday o'yinlar turli usullarda o'tkaziladi.

Chunonchi, qaysi o'yinchoq yashirib qo'yildi, qaysi o'yinchoq qo'shib qo'yildi va hokazo. Bolalarda noto'g'ri tushuncha hosil bo'lib qolmasligi uchun bir xil buyumlardan foydalanish kerak. Chunki o'yinchoqlar har xil bo'lgan taqdirda

bolalar to'g'ri javob berolmay, beshinchi deyish o'rniga o'yinchoq yoki kubik deb yuborishi mumkin va hokazo.

Sanayver turidagi o'yinlar ham shu guruhga kiradi. Bolalarni doskaga chiqarish va safga tizib qo'yish, keyinchalik esa to'g'ridan-to'g'ri qatorma - qator sanatish mumkin.

Didaktik o'yin: “Sanayver”.

Didaktik topshiriq: son qatori haqidagi tushunchani mustahkamlash.

O'yin topshirig'i: har qanday sondan boshlab sanash va uni davom ettira olish.

O'yinning borishi: bolalarga bir xil buyumlar berib qo'yiladi. Buyumni ko'rsata turib bola bir desa, ikkinchisi kelib ikki deydi va hokazo.

O'yinni buyumsiz o'tkazish va hisoblashni birdan boshlamaslik yo'li bilan bu o'yinni mustahkamlashtirish mumkin. Masalan o'qituvchi 4 desa, o'quvchi hisoblashni 5 sonidan boshlab davom ettirishi lozim. So'ngra o'qituvchi uni to'xtatadi. Navbatdagi o'quvchi sanashni davom ettiradi.

O'yin navbatma - navbat har bir qator bilan o'tkazilishi mumkin. Bu esa har bir safga tizilganlarga g'olib bo'lish istagini tug'diradi.

Biz Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani 6-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinflari matematika darslarida tajriba-sinov ishlari o'tkazib, yuqorida keltirilgan didaktik o'yinlardan foydalangan holda ta'lim samaradorligini sezillarli darajada orttirishga erishdik. O'quvchilarning matematika darsiga bo'lgan qiziqishlari, matematik savodxonliklari anchagina oshdi.

XULOSA VA METODIK TAVSIYALAR

O'quvchilarni kichik yoshdan boshlab aqliy qobiliyatlarini, tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, ular egallagan bilimlarini amaliyotga qo'llashga o'rgatish, amaliy ko'nikma va malakalar hosil etishning zamonaviy shakl, vosita va usullarini aniqlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinlar orqali ta'lim samaradorligini oshirish muammosini nazariy va metodik jihatdan tahlil etib va tajriba-sinov ishlari natijalari asosida quyidagi xulosalarga keldik.

1. Bola hayotida bo'g'chadan so'ng maktabning dastlabki davrlarida o'yin muhim o'rin tutadi. Psixologik nuqtai nazardan ular aqliy faoliyatga o'tgan bo'lsalarda o'yinni yaxshi ko'radilar, mashg'ulotlar qiziqarli bo'lishi ularning motivini rivojlantiradi.

2. Bolalar o'yin orqali o'z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o'zlashtiradilar. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayonining samardorligini oshiradi, o'quvchilar faolligini oshiradi.

3. Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali bo'lishiga o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini muvoffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya'ni didaktik o'yinlar vositasida nazariy-bilimlar oson egallanadi, o'quvchilarning qiziqishlari ortadi.

4. Ayniqsa, qiyin o'zlashtiruvchi o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini oshirishga bunday o'yinlar samarali ta'sir ko'rsatadi. Ular o'yin orqali bilimlarni egallashda qiynalmaydilar.

5. Boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinlardan foydalanish maxsus pedagogik texnologiyani talab etadi. Texnologik yondashuv asosida darsni tashkil etish o'qituvchidan ta'limiy-tarbiyaviy maqsadlarni oldindan aniq belgilab olish, uning loyihasini tuzish va jarayonni kafolatli tashkil etishni talab etadi.

6. Boshlang'ich sinflarda pedagogik texnologiyalardan foydalanish muayyan qoidalarga amal qilish zaruriyatini qo'yadi. Ularni chuqur o'zlashtirish va qo'llash davr talabidir.

7. Ta'limda o'qitishning vositalari va usullaridan ko'plab foydalanilsada didaktik o'yin vositalari va usullari texnologiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki o'yin faoliyati ko'plab ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni bajaradi: maftunkorlik, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish, davolovchilik, kommunikativlik, millatlararo muloqat, tashxis, ijtimoiylashuv va h.k.

8. O'yin ijodiyliги bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy faol xarakter «ijodiy maydoni» ga ega bo'ladi. O'yin – bu faoliyat, jarayon va o'qitish metodidir.

9. O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, ta'lim faoliyatini rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo'llaniladi. O'yinlarga bir necha misollar keltirish mumkin: «zinapoya», «izohli lug'at», «rolli o'yinlar», «6x6 metodi», «fikrlar hujmi», «aqliy hujum» va h.k.

10. Ta'limda didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g'olib chiqish maqsadida jondili bilan mashq qiladilar, materialni yaxshi o'zlashtiradilar.

11. Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligi, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatlarini o'z ichiga oladi. Natijada bolalar o'quv materialini ko'rish, eshitish, sezish orqali to'liq idrok etadilar.

12. O'yin bolalar his-tuyg'u, ijodiy faoliyatlari, guruh bo'lib xarakat qilishlari, hamjihatlikda ish ko'rishlariga ta'sir etadi. O'yin davomida o'quvchilar o'zlarini mustaqil boshqarishga o'rganadilar. Didaktik o'yinlar juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib muhim ijobiy sifat va fazilatlarni tarkib toptiradi: hamjihatlilik, intizomlilik, o'zini tuta bilish, sabr-toqat, irodaviylilik, uyushqoqlik va h.k.

13. Sinfda har bir fanning o'z xususiyatidan kelib chiqadigan didaktik o'yinlar turlari mavjud bo'lib, o'qituvchi ulardan oqilona foydalanishi lozim bo'ladi.

14. Ayrim o'yinlar sinfdan tashqari holatlarda tashkil etilib, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazish vositasi sifatida xizmat qiladi.

15. Har bir didaktik o'yinning ham har o'yindagi singari qoidalari bo'ladi. Usha qoidalarga amal qilinmasa o'yinning o'yin sifatidagi ahamiyati, binobarin, o'yinning ta'lim-tarbiyaviy va psixologik ahamiyati yo'qoladi.

Biz ushbu bitiruv malakaviy ishimizda didaktik o'yinlarning ayrim tur va usullari, ularning ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati, o'quv-tarbiya jaryoni samaradorligini oshirishdagi o'rni ustida to'xtalib o'tdik. Ushbu mavzuning imkoniyatlari keng bo'lib, boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan alohida fanlarga oid didaktik o'yinlarni yanada chuqurroq va kengroq tadqiq etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008. – 176 bet.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. - T.: «Sharq», 1998. – 184 bet.
3. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: «Sharq»,1997. – 64 bet.
4. Abdullaeva H. A., Bikbaeva N.U. va boshq. Boshlang'ich ta'lim konstepstiyasi. Boshlang'ich ta'lim. 1998. 6 –son, -12 – 24 betlar.
5. Abdurahmanova N., Jumaev M., O'rinboeva L. Boshlang'ich sinflar uchun matematikadan didaktik materiallar. -T.: «Istiqlol», 2004, - 65 bet.
6. Azizxo'jaeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: «O'qituvchi», 2003. – 23 – 48 bet.
7. Abdieva D. Soros bilan hamkorlik – yutuqlar kaliti. Boshlang'ich ta'lim. 2003. 2-son, 17- 22 bet.
8. Bo'ronova Sh. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish. Uzluksiz ta'lim. 2004. 3-son. - 34-38 betlar.
9. Bikbaeva N., Yangiboeva E. 2-sinf matematika darsligi. -T.: «O'qituvchi», 2008. - 112 bet.
10. Zayniddinova M. O'quvchilarning mustaqil fikr faoliyatini rivojlantirish omillari. Xalq ta'limi. 2004. 1-son, - 32-37 bet.
11. Inomova M. Ta'limga yangicha yondashuv. BoshlanG'ich ta'lim. 2000. 5- son, - 8- 13 betlar.
12. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari.- T.: «O'qituvchi», 2004. – 176 bet.
13. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika. - T.: «O'qituvchi». 2011. - 94 -112 b.
14. Mamatqulov E. Mehnat ta'limi samaradorligida interfaol usullar. Maktab va hayot. 2005. 1-son. – 15 -16 betlar.
15. Mamatova G. Ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Boshlang'ich ta'lim. 2004. 3–son. - 22–23 betlar.

16. Mamatqulova R. Interfaol usul: bahs-munozara. Xalq ta'limi. 2004. 1-son. - 46–47 betlar.
17. Nishonova Z. Mustaqil fikrlashga o'rgatish. Boshlang'ich ta'lim. 1999. 3-son, -34-35 betlar.
18. Rahimova O. Ona tili darslarida interfaol metodni qo'llash. Til va adabiyot ta'limi. 2003. 4-son, -33 – 37 betlar.
19. Rahimbekova S. Yangi pedagogik texnologiya nima? Boshlang'ich ta'lim. 2001. 4-son. -12-13 betlar.
20. Rahmatullaeva H. Ta'lim taraqqiyoti – mening taqdirimda. Boshlang'ich ta'lim. 2005.2-son, -16-17 betlar.
21. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati. Xalq ta'limi. 1999, 1-son, -38 – 42 betlar.
22. Sariev Sh. Mustaqil fikrlashga o'rgatish. Boshlang'ich ta'lim. 2000. 2-son. -7-9 bet.
23. Turg'unov S. Boshlang'ich ta'lim muammolari. Boshlang'ich ta'lim. 2004. 3-son, 26-bet.
24. Tolipova J. Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari. Boshlang'ich ta'lim. 2002. 1-son. -10-11 betlar.
25. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar (ruschadan tarjima). – GulDU. 1999. -51-56 betlar.
26. Choriev R. Yangi pedagogik texnologiyalar – ta'lim tarbiya sifat va samaradorligi omili. Xalq ta'limi. 2004. 4-son. -5-9 betlar.
27. Yunusova Sh. Interfaol usullardan foydalanish. Boshlang'ich ta'lim. 2004, 5-son. 15-bet.
29. Qayumov B. Pedagogik texnologiya – o'quvchilar mustaqil tafakkurini shakllantirish omili. Xalq ta'limi. 2004. 4-son. -11-14 betlar.
30. G'afforova T., Nurillaeva Sh., Xaydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar.– T.: «O'qituvchi», 2004. -109-111 betlar.
31. Husanboeva Q. Bola o'ylasin, izlansin, mustaqil fikrlasin.

- Boshlang'ich ta'lim. 2003. 4-son. -7-8 betlar.
32. Husanboeva Q. O'qitishning zamonaviy metodlari va adabiy ta'lim. Til va adabiyot ta'limi. 2003. 2-son. -34-37 betlar.
33. Holiqov E. Interfaol usullar. «Ma'rifat» gazetasi. 2004. 7-son.
34. Husanboeva Q. Ta'limning zamonaviy texnologiyalari. Til va adabiyot ta'limi. 2003. 3-son -28-32 betlar.
35. Hasanov R. Tabaqalashtirilgan ta'lim muammo va yechim. «Ma'rifat» gazetasi. 2003. 17- son.
36. Husanboeva Q. Ertaklar yordamida mustaqil fikrlash. Boshlang'ich ta'lim. 2000. 5-son. -32 – 33 betlar.

Internet materiallari

37. WWW. adpima. com
38. WWW. sciontologu.org. ru
39. WWW. amazon.com
40. WWW. iet. mesi.ru
41. WWW. ip kpol aaa net.ru
42. WWW. google. uz